

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarida 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

U M U M I Y H I S O B O T

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishida berilgan 14-sonli topshirig'ining 2.b-bandida **yil yakuniga qadar** Agentlikka eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida namunali tizim yaratib, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga hisobot berish topshirig'i berilgan.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorining 4-bandida **2027-yil 1-yanvargacha** huquqiy eksperiment tariqasida Sog'liqni saqlash vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, "O'zbekneftgaz" AJ hamda "O'zsuvta'minot" AJning (keyingi o'rinlarda — eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlar) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbari lavozimiga **Agentlik xodimlari tayinlanishi**, eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbarlari **bevosita Agentlikka bo'ysunishi** va eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish **Agentlik hamda eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlar** tomonidan birgalikda amalga oshirilishi belgilangan.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **Suv xo'jaligi vazirligi** tomonidan Agentlik bilan hamkorlikda bir qator ishlar amalga oshirildi, xususan:

Suv xo'jaligi vazirligi va Agentlik o'rtasida 2025-yil 4-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarida 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan **"Yo'l xarita"** tasdiqlandi.

Ma'lumot uchun: "Yo'l xaritasi"da korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **"yangi tizim"** yaratish va Vazirlikning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarini Agentlikka o'tkazish hamda tizimda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish, sohani raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish bo'yicha **23 ta** banddan iborat chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qaror talablariga asosan, Suv xo'jaligi vazirligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi rahbari **shtat birligi** Agentlikka o'tkazildi hamda Agentlik direktorining 2025-yil 18-iyundagi 165-son buyrug'i bilan Agentlik xodimi O.Abdug'aniyev Suv xo'jaligi vazirligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi rahbari lavozimiga tayinlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorining 6-bandida berilgan topshiriqqa asosan, huquqiy eksperiment doirasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash maqsadida Agentlik va eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarning 2025-yil

21-maydagi **Qo'shma qarori** bilan **Huquqiy eksperiment o'tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tartibi to'g'risida nizom** tasdiqlandi.

Shuningdek, eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy eksperimentning maqsadi, vazifalari va amalga oshirish tartibini belgilash naqsadida Agentlik va eksperiment o'tkaziladigan tashkilotlarning 2025-yil 20-iyundagi **Qo'shma qarori** bilan **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy eksperimentni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom** tasdiqlandi.

Suv xo'jaligi vazirlik tizimida qarorda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash, ichki nazorat bo'linmalari faoliyati samaradorligini oshirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda, xususan:

I. Suv xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati:

Suv xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni oldini olish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati kompleks o'rganildi.

O'rganish natijalari Vazirlikning 2025-yil 10-iyul kuni o'tkazilgan **sektor yig'ilishida tanqidiy muhokama qililib**, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasi ko'rib chiqilishi belgilandi.

- O'rganish natijalariga asosan, 2025-yil 15-iyul kuni Suv xo'jaligi vaziri tomonidan **"Korrupsiyaga qarshi kurashi faoliyatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, faoliyat samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi"** tasdiqlandi.

- Vazirlik, Suv xo'jaligi ob'yektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi hamda Suv xo'jaligi ob'yektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining **2025-yildagi reyting baholash natijalarini yaxshilash** bo'yicha alohida **chora-tadbirlar rejasi** ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

II. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarori bilan tasdiqlangan, **Davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarini tashkil etishning minimal mezonlari** talbalariga asosan, Suv xo'jaligi vazirining 2025-yil 8-oktyabrdagi 165-sonli buyrug'i bilan Vazirlik tizimida jami **25** ta shtat birligidan iborat **korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Jumladan, Vazirlik markaziy apparatida **3** ta shtat birligidan **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi**, shuningdek Vazirlik huzuridagi Suv xo'jaligi ob'yektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasida **1** ta, Suv xo'jaligi ob'yektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi

markaziy apparatida **2 ta**, hududiy irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda respublikaga bo'ysunuvchi tizim tashkilotlarida **1 tadan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari uchun alohida shtat birliklari** ajratildi.

Hozirda mazkur shtat birliklarini munosib nomzodlar bilan to'ldirish maqsadida ochiq tanlov o'tkazish choralari ko'rilmogda.

Ma'lumot uchun: Suv xo'jaligi vazirligi tizimida jami **282 ta** tizim tashkilotlari mavjud bo'lib, hozirda tizimda **34 569 nafar** (32 648 – boshqaruv, 1 921 – ishlab chiqarish) xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda.

II. Idoraviy hujjatlar:

- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (**KPI**) tasdiqlandi

- **13 ta** ichki idoraviy hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqildi

- **23 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari korrupsiyaviy omillari mavjudligi yuzasidan ko'rib chiqildi.

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining reyting baholash natijalari:

- **2024 yil yakuni** bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi reytingida **100 ball**dan **75 ball** bilan **“qoniqarli”** deb (**2023 yil – 66 ball “qoniqarli”, 2022 yil – 13 ball “qoniqarsiz”**) baholangan.

IV. “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi doirasida:

- **34 mingdan** ortiq xodimlar tomonidan **Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiya** to'ldirildi.

- **64 nafar** xodim **66 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida **ta'sischi va rahbar** sifatida faoliyat yuritib kelayotganligi aniqlandi. Aniqlangan holatlar yuzasidan:

- **7 nafar** xodimga nisbatan **O'zR MJtKning 193⁴-moddasi 1-qismi** bilan **ma'muriy bayonnoma** rasmiylashtirilib, sudga yuborildi;

- **4 nafar** xodim bilan tuzilgan **mehnat shartnomalari** taraflarning kelishuviga asosan **bekor qilindi**;

- **53 nafar** xodimlarning tadbirkorlik sub'ektlaridagi faoliyati belgilangan tartibda **tugatilishi ta'minlandi**.

VI. O'rganish va nazorat tadbirlari:

a) 7 ta (2024 y – 2 ta) **xizmat tekshiruvi** o'tkazildi:

- **3 nafar** xodimga **intizomiy jazo chorasi** qo'llanildi, jumladan **1 nafar** xodim **egallab turgan lavozimidan** ozod etildi.

- **4 ta** xizmat tekshiruvi yakunlari bo'yicha to'plangan hujjatlar **HMQOga huquqiy baho berishlik** uchun yuborildi.

- HMQO tomonidan **5 nafar** shaxslarga nisbatan **2 ta jinoyat ishi** qo'zg'atildi.

b) 234 ta ob'yektda o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida **2 205 ta** holatda **233 426,0 mln so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar** aniqlangan, shundan:

- **120 ta** ob'yektda **571 ta** holatda **153 649,4 mln so'm** byudjet mablag'larining **noqonuniy sarflanishi oldi olindi**;

- **115 ta** ob'yektda **1 635 ta** holatda **118 241,8 mln so'm** byudjet mablag'lari **noqonuniy sarflanganligi** aniqlandi.

Ma'lumot uchun: 2024 yilning shu davrida 81 ta obyektida o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 345 ta holatda 98 644,0 mln so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan, shundan: 56 ta obyektida 121 ta holatda 27 313,0 mln so'm byudjet mablag'larining noqonuniy sarflanishi oldi olingan, 25 ta obyektida 224 ta holatda 71 331,0 mln so'm byudjet mablag'lari noqonuniy sarflanganligi aniqlangan.

- 83 ta obyektida 1 078 ta holatda aniqlangan 102 506,0 mln so'mlik byudjet mablag'larining noqonuniy sarflanganligi bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qilish va davlat moliyaviy nazorat organlariga yuborilgan.

Ma'lumot uchun: 2024 yilning shu davrida o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 18 ta obyektida 149 ta holatda aniqlangan 59 298,0 mln so'mlik byudjet mablag'larining noqonuniy sarflanganligi bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qilish va davlat moliyaviy nazorat organlariga yuborilgan.

VII. Murojaatlar bilan ishlash:

- Aloqa kanallari orqali kelib tushgan 44 ta murojaatlar o'rganildi
- 18 tasiga tushuntirish berildi
- 12 tasi qanoatlantirildi
- 9 tasi tegishliligi bo'yicha yuborildi
- 5 tasi bo'yicha to'plangan hujjatlar HMQOga yuborildi.

VII. Korrupsiya qarshi kurashi bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari:

- 2025 yil davomida 33 ta seminar-trening, amaliy o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

- 114 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ushbu tadbirlar OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishi ta'minlandi.

Ma'lumot uchun: 2024 yil 8 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida jami 22 ta seminar-trening, amaliy o'quv mashg'ulotlari hamda 84 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ushbu tadbirlar OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishi ta'minlandi.

Vazirlikning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi ochilgan bo'lib, 50 dan ortiq materiallar joylashtirilgan.

Xususan, "Suv xo'jaligida korrupsiyaga o'rin yo'q", "Betonlashtirish sifatiga alohida e'tibor berilmoqda", "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlar tahlili" va boshqalar.

Vazirlik tizimidagi 13 nafar xodim Huquqni muhofaza qilish akademiyasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da masofaviy maxsus o'quv kurslarida o'qitildi, 28 nafar xodim Virtual akademiyada 36 soatlik maxsus chuqurlashtirilgan kurs malaka oshirdi.

Hozirda Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlovchi 574 nafar xodimlar ro'yxati shakllantirilib, "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" maxsus kurslarida bepul (masofaviy) o'qitish uchun taqdim qilindi.

VIII. Raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish yo'nalishi:

a) 2020-2025 yillar davomida:

- 13 174 ta cuv xo'jaligi ob'yektlariga "Aqlli suv"
- 10 296 ta meliorativ kuzatuv quduqlariga "Dayver"
- 1 739 ta nasos stansiyalarga "Suv sarfini onlayn nazorat qilish" qurilmalari o'rnatildi hamda 93 ta yirik suv xo'jaligi ob'yektlari avtomatlashtirildi.

b) Hisob palatasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda sohada mavjud barcha axborot tizimlari ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi **"Raqamli suv xo'jaligi"** yagona platformasi yaratildi;

Suv va energiya resurslarini real vaqt rejimida monitoring va nazorat qilish, prognozlash, suv resurslarini yagona nuqtada taqsimlash va boshqarish maqsadida **"Vaziyatlar markazi"** tashkil etildi.

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashi va uni oldini olish borasidagi ijobiy ishlar bilan bir qatorda ushbu yo'nalishda **ayrim xato va kamchiliklarga** yo'l qo'yilmoqda, **jumladan:**

Birinchidan, hududiy va tizim tashkilotlarida **"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"**gi Qonun bilan belgilangan **cheklovlarga rioya etilishi, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etish** bo'yicha ishlar **yo'lga qo'yilmagan.**

Misol uchun, Vazirlik tomonidan hududiy va tizim tashkilotlarida ishlayotgan **141 nafar** xodim davlat xizmati bilan bir vaqtda tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelayotganligi aniqlanib, bartaraf etilgan.

Lekin, hududiy va tizim tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlar tomonidan ushbu yo'nalishda **birorta ham holat aniqlanmagan.**

Achinarlisi, hozirga qadar rahbarlik lavozimlariga yuborilayotgan **nomzodlar orasida ham bu kabi holatlarning aniqlanayotgani** joylarda bu yo'nalishdagi ishlar **o'z holiga tashlab qo'yilganligini ko'rsatmoqda.**

Misol uchun, Quyi Sirdaryo ITHB ME boshlig'i yoki **"Jizzaxsuvqurilishinvest"** DM direktori lavozimiga taqdim etilgan nomzodlar **tadbirkorlik subyektlarida ta'sischi yoki rahbar sifatida** faoliyat yuritib kelishi ma'lum bo'lgan.

Ikkinchidan, hududiy va tizim tashkilotlarida vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda **nomzodlarni dastlabki o'rganish va tekshirish ishlari** amalga oshirilmayapti.

Natija moddiy javobgarlik mavjud bo'lgan, moliyaviy mablag'lar bilan ishlovchi lavozimlarga ham **muqaddam o'zlashtirish jinoyatlari uchun sudlangan, nopok va g'arazli shaxslar tayinlanishiga va ular tomonidan takroran jinoyatlar sodir etilishiga** olib kelmoqda.

Misol uchun, joriy yilning 30 oktabr kuni tamagirlik yo'li bilan fuqarodan **5000 AQSH** dollari olgan vaqtida ushlangan, **"Farg'onasuvqurilishinvest"** DM bosh muhandisi lavozimida ishlagan **J.Mirzayev** 2024-yil oktabrida ishga qabul qilingan, 2025-yil fevralida bosh muxandis lavozimiga o'tkazilgan. **Lekin,** o'rganishlarda **J.Mirzayev muqaddam 2 marta sudlangani, qidiruv bo'lganligi, 2024 yilda ushlanib, avgust oyida JKning 168-moddasi bilan ayblanib, sud hukmi chiqqan bo'lsada, oradan 1 oy o'tib ishga qabul qilingan.**

Uchinchidan, hududlar va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida targ'ibot tadbirlari, xodimlarning ushbu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan **chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yo'lga qo'yilmagan.**

Misol uchun, 2025-yil davomida Zarafshon MTFB, Janubiy Mirzachul MK, Amu-Buxoro MK FB, Qarshi MK FB, Jizzax Bosh NS, Norin-Qoradaryo, Amu-Buxoro, Quyi Zarafshon, Quyi Sirdaryo, Chirchiq-Ohangaron hamda Sirdaryo-So'x ITHB korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida targ'ibot tadbirlari, xodimlarning ushbu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan **chora-tadbirlar amalga oshirilmagan.**

Ular tomonidan faqatgina Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlarida joylashtirilgan materiallarga havolar keltirish bilan cheklanilgan.

To'rtinchidan, joylarda korrupsiyaga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan **takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan.**

Misol uchun, Vazirlikka 2025-yil davomida hududiy va tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga imkon bergan omillarni o'rganish va natijalari bo'yicha takliflar bo'yicha birorta ham tahliliy hujjatlar yuborilmagan.

Yuqoridagilarga asosan, hududiy va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashi va uni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida qo'yidagilar **taklif etiladi:**

1. Hududiy va tizim tashkilotlarida xodimlar tomonidan **"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"**gi Qonun bilan belgilangan **cheklovlarga rioya etilishi, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etish borasida Maxsus bo'linmalar (kadrlar va komplayensga mas'ul xodimlar)** mas'uliyatini yanada oshirish;


2. Hududiy va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda **nomzodlarni dastlabki o'rganish va tekshirish ishlarini** Vazirlik va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma talablariga asosan amalga oshirilishi va o'rganish xulosalari rasmiylashtirilishini qat'iy nazoratga olish;

3. **"Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida** barcha hududiy va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida **targ'ibot tadbirlari tashkil etilishi va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yortilishini** ta'minlash;

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan **o'quv seminarlarini tizimli ravishda tashkil etilishini** ta'minlash;

4. Hududiy va tizim tashkilotlari tomonidan **har chorakda** joylarda korrupsiyaga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash bo'yicha **o'rganishlar o'tkazish, natijalari bo'yicha ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan** Vazirlikka axborot taqdim etib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Suv xo'jaligi vazirligi Korrupsiyaga
qarshi kurashish va komplayens
nazorati bo'limi boshlig'i



O. Abdug'aniyev

2025-yil 29-dekabr